

**ARAB TILI ZAMONAVIY TA'LIMIDA INNOVATSION
YONDASHUV**

Andijon davlat chet tillari instituti

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasи o'qituvchisi

Murhanova Nilufar Yigitalievna

Annotatsiya: Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega yetuk inson qilib tarbiyalash oldimizga qo'ygan yuksak maqsad hisoblanadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsion, yangicha usul, arab tili ta'limi, yondashuv.

Аннотация: Дальнейшее развитие системы обучения иностранным языкам, воспитание молодого поколения как зрелой личности, обладающей современными знаниями – высокая цель, которую мы ставим перед собой.

Ключевые слова: современный, инновационный, новый метод, обучение арабскому языку, подход.

O'zbekiston Respublikasi dunyoviy demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi har tomonlama ma'naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalashdir. Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, o'sib kelayotgan yosh avlodni, ya'ni har bir shaxsni shakllantirish va ularni mustaqil ishlay olishga o'rgatish masalasi alohida o'rinn tutadi. Bu borada yurtboshimizning: "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak", - degan so'zlarini ta'kidlab o'tish joiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan

Modern education and development

holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Hozirgi kunda ta'lim sohasining barcha bosqichlariga oid umumiyligini pedagogik va didaktik talab talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalarini asosida mustaqil ishslash samaradorligini takomillashtirishdir.

B/BX/B jadvali tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar mavzu bo'yicha "nimalarni bilasiz" va "nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvolning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar. Mavzuni tinglaydilar va 3 bo'limni to'ldiradilar.

BILAMAN

B/BX/B jadvali

BILISHNI XOHLAYMAN

BILIB OLDIM

Klaster

Klaster usuli bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi. Yozuv taxtasining o'rtasiga asosiy so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar yaratilishidan asosiy maqsad mazkur matnlar ustida mustaqil ishslash jarayonida talabalarga lug'at bilan ishslash va arab tilidan tarjima qilish ko'nikmalarini egallash hamda grammatik materialni mustahkamlash imkonini berishdan iborat.

Ta'kidlash kerakki, chet tillarini o'rgatish tizimini yanada rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega yetuk inson qilib tarbiyalash oldimizga

qo'yan yuksak maqsad hisoblanadi. Mamlakatimiz oliv ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan arab tili o'qituvchilari o'zaro muloqot olib boradigan, fikr almashadigan, arab tilini o'qitishda duch kelinayotgan muammolarga birgalashib yechim topadigan ilm maydoniga aylanishi darkor. Arab tili, u haqida gapishtiganidek juda murakkab til emas, balki juda boy til. Aslida esa talaba arab tilini o'rganish mobaynida duch keladigan barcha muammolar arab tilining murakkabligida emas, balki boshqa sabablarga bog'liq. Aynan shuning uchun, talabaga yordam berish maqsadida u bilishi zarur bo'lgan arab tilining bir necha asosiy grammatik qoidalarini soddalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga dars o'tish kerak.

Biz imkon qadar grammatika qoidalarini matematik qoidalarga o'xshab quruq yodlab olishga asoslangan o'quv uslublardan chetlashishga harakat qilishimiz zarur Agar talaba aynan shu tarzda bilim olishga harakat qilsa, u ko'p mehnatini va vaqtini bekorga sarflaydi, shuningdek, bunday uslub bilim olish jarayonini qiyinlashtirgani uchun, ehtimol, tilni o'rganishga bo'lgan ishonch va umidning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Xolisova G.M Murhanova N.Y Nutqning o'zaro ta'sir jarayonidagi analistik va diskursiv xususiyatlari. PEDAGOG jurnali. Vol 6 No. 12.2023
2. ZiyoNet.com